

TALABALAR KASBIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA KASBIY
TARBIYAVIY QADRIYATLARGA MA'NAVIY YONDASHUV TAHLILI

Mirzayeva Fotima Oxunjonovna

*FarDU Pedagogika yo'nalishi**1 bosqich magistri*

Kalit so'zlar: *bilim, ko'nikma, malaka, tarbiya, vosita, omil, ijodiylik, faollik, kitobni sevish, komil inson.*

Ключевые слова: *знание, навык, квалификация, воспитание, орудие (средства), фактор, творческий, активность, любить книгу, совершенный (разумный) человек*

Keywords: *knowledge, skill, qualification, upbringing, means, factor, creativity, activism, love of books, perfect man.*

Tarbiya-jamiyatdagi hodisa sifatida o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat hayotining barcha shakllarida, turmushi, ishlab chiqarish faoliyati, his-hayajon, estetika, etika qoidalari, ijodi va ma'naviyligida odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish, bolaning o'ziga xos jihatlari, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantiruvchi faoliyat bo'lsa, ta'lim esa insonni jamiyatdagi hayotga tayyorlash va ijtimoiy ahamiyatga aga vazifalarni bajarishga tayyorlovchi ma'lum pedagogik qoidalarga moslashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat vosita va usullaridan iborat tizimdir.

Tarbiyani asosiy belgilariga etobor qaratadigan bo'lsak:

birinchidan, tarbiya o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish sharoitlariga jalb etish, ya'ni bolalar yoshi ulg'aygan va mehnat qobiliyatini yo'qotgan katta avlodning hayotini ta'minlaydilar;

ikkinchidan, tarbiya insoniyat jamiyati yuzaga kelishi bilan paydo boladi va toki jamiyat yashar ekan u ham mavjud bo'ladi;

uchinchidan, tarbiya o'z rivojlanishining har bir tarixiy bosqichida o'zining vazifasi, mazmuni va shakllari bo'yicha aniq bir xususiyatga ega bo'ladi;

to'rtinchidan, yosh avlodni tarbiyalash ularning ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishlari ularni katta avlodning munosabatlar tizimiga jalb etish asosida va natijasida amalga oshiriladi.

Tarbiya o'qitishning bir qismi sifatida ta'limni ham o'z ichiga oladi. Lekin ta'lim jarayoni murakkab va ko'p qirrali jarayondir.

Ta'lim va tarbiya to'g'risida sharq va g'arb mutafakkir olimlari juda ko'plab ilmiy g'oyalar, fikrlar bildirib o'tganlar. Eng avvalo tarbiya haqida so'z ketganda Avestoni misol tariqasida aytib o'tsak, o'zining "Ezgu fikr, ezga so'z, ezgu amal" g'oyasi orqali o'sha davrdagi ta'limiy-tarbiyaviy, manaviy qadriyatlarni ochib bergan. Islom olamining muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni Karim nozil bo'lgan vaqtidan to hozirgi kungacha va bundan keyin ham butun jahon ilm-fani, ta'lim-tarbiyasi va qadriyatlarining asosiy manbai sifatida etirof etiladi. Islom olamida Qur'ondan keyin ikkinchi asosiy manba bo'lgan hadislarni aytadigan bo'lsak, bu o'rinda Imom Buxoriyning "Al jome as-sahih" asarini, Imom Termiziyning "Sunan at-Termiziy" va boshqa hadis ilmi haqidagi asarlarni ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ahamiyati juda juda muhim deb hisoblashimiz mumkin. Hadislarda inson ma'naviy kamolotining mezoni uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kenligi ilmiy bilimlarni qay

darajada egallaganligi, o'z bilimi bilan atrofdagilar va jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib yetishishida muhim omildir deya ko'rsatiladi.

Ibn Sino, Farobiy, Beruniy va Xorazmiylar ta'lim-tarbiyaning sharqona xususiyatlarini yoritgan bo'lsalar, Yan Amon Komenskiy, I.G. Pestalotsi, A. Distervag kabi olimlar ta'lim-tarbiyaning g'arbcha usul va uslublarini ilgari surganlar.

Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy-estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezoni sifatida talqin etiladi. Ibn Sino ta'limotida talabada haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiiq ata olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan. Olimning "Hay ibn Yazqon" nomli asari kishilarning did farosatini o'stirish, fikr doirasini kengaytirishi bilan ta'lim-tarbiyada katta ahamiyatga ega.

Farobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga etibor berish kerakligi, ta'lim-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritadi. Farobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. "Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya-nazariy fazilatni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir", deydi olim. Farobiy insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l bilan ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi, ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat-nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deb ta'kidlaydi. Demak, Farobiy so'zi bilan aytganda, ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob meyorlari o'rganilar ekan. Farobiy har qanday fanni ikki qismga ajratgan. Bu qismlarni ajratish uchun ularni hayotga tadbiiq etish va foydalanish kerakligi to'g'risida takidlagan. Bu qismlarni turli asoslarda joriy etish mumkin. Masalan, o'rganiladigan materialni o'quvchilar yoki talabalarning shaxsiy kuzatishlariga bog'lash, ta'limni jamiyat qurilishi amaliyoti bilan bog'lash, turli sayohatlar, talabalarning o'zlariga mos ijtomoiy ma'naviy-marifiy foydali ishlarini, unumli mehnatini inobatga olish.

Beruniy o'zining asarlarida inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasida ham alohida etirof etiluvchi irsiyat, muhit, ta'lim-tarbiya masalasidir. Beruniy ilmiy bilishga oid ta'lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lim nazariyasida o'zga xos maktab yaratgan mutafakkir hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya masalasiga katta hissa qo'shgan mutafakkirlardan yana biri Muhammad al-Xorazmiydir. Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shdi. Barcha mutafakkirlar kabi bilim berishning, ta'lim, tarbiyaning turli vositalari, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari haqida o'zining noyob asarlarini va fikrlarini qoldirgan.

Zamonaviy didaktikada ta'lim mazmuni va strukturasi haqida turli xil yondashuvlar mavjud. Y.A. Komenskiy didaktika faqat o'qitish san'atidagina emas, balki tarbiya san'atidan ham iborat ekanligini, tarbiya har tomonlama axloqiy yo'nalishdagi fe'l-atvorni shakllantirishning zarur sharti ekanini ham uqtirgan. Komenskiy tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir deb takidlaydi. Komenskiyning pedagogic nazariyasida ta'lim-o'qitish, ya'ni didaktika alohida o'rinni egallaydi.

Komenskiyning zamondoshi bo'lgan nemis olimi Adolf Disterveg tarbiya insonning tabiiy kamol topishiga qarab olib borilishi o'quvchining yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak deydi. Olim ta'lim-tarbiyaning oliy maqsadini belgilab, bu "haqiqatga, go'zallikka va yaxshilikka xizmat qilishga qaratilgan tashabbuskorlikdir" deb aytgan.

Tarbiya masalasiga to'xtalganimizda Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarini, Amir Temurning "Temur tuzuklari", Mirzo Ulug'bekning ilmiy qarashlarini ta'kidlab o'tish muhim deb o'ylayman. Ayniqsa Alisher Navoiyga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'lsa kerak. Alisher Navoiy o'z asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ular qiyofasida namoyon bo'luvchi ma'naviy-axloqiy sifatlarni ulug'lagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy muammolarni yorituvchi asarlarida komil unsonni shakllantirish jarayonining mazmunini, ushbu jarayonning o'ziga xos jihatlari, yo'llari, shakl va usullari borasidagi mulohazalarni bayon etadi.

XIX-XX asrlarda Turkiston o'lkasida ta'lim -tarbiyaning yangi bosqishi amalga tadbiiq etila boshlandi. Bu davrda yashab ijod etgan yozuvchi-olimlardan Abdulla Avloniy, Behbudiy, Fitrat kabilar ham bilim berishning yangi usullari orqali bilim oluvchilarning axloqiy tarbiyaviy jihatlarni ham o'stirishga o'z hissalarini qo'shdilar. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo saodat, yo falokat masalasidir" deb bejiz aytmagani.

Yana shu o'rinda kasbiy qadriyatlar degan tushuncha haqida fikr yuritsak, bu qadriyat - tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, odamlar tomonidan qadrlanadigan, ular uchun foydali, ahamiyatli, moddiy-iqtisodiy, madaniy - ma'naviy, mafkuraviy, siyosiy, huquqiy, diniy, milliy, ijtimoiy omillar yig'indisidir. Aynan kasbiy qadriyatlarni tarbiyaviy-ma'naviy mohiyati o'z o'rniga egadir. Har bir kasbning o'ziga xos qadriyatlari bo'lib, o'qituvchilik kasbida bolaning qarashlarini hurmat qilish, bilim berishda bolaning yoshini, aqliy xususiyatlarini, jismoniy qobiliyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari talabalarni o'qitish jarayonida o'qituvchilik kasbining qanchalik mashaqqatli shu bilan birga buyuk bir soha ekanligini, o'zining alohida qonuniyatlari, talablari va axloqiy jihatlari borligini o'rgatib borish muhim hisoblanadi.

Zero, qadriyatlar falsafiy nazariyasining ba'zi masalalari o'tgan asrning ikkinchi yarmida Yevropada yangi kantchilik maktabiga mansub V. Vindelband, G. Rikert va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Qadriyat nazariyasini o'rganish yunoncha - qimmatbaho ma'nosini anglatuvchi aksiologiya degan ilm sohasini yuzaga keltirdi va XIX asrning 20-50 yillarida M. Sheler, N. Gartman, R.B. Perri, S. Peper kabi nemis va amerika faylasuflarining asarlarida bu fanning asoslari shakllantirildi. Ular fuqaroning mehnat va ta'lim taraqqiyoti bilan bog'liq qarorlarni boshqaradigan printsiplardir. Barcha shaxslar o'z ishlarida vakolatli va hamkasblariga va atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari kutilmoqda. Bundan tashqari, shaxslar fuqarolik va professional sifatida harakat qilish bilan bog'liq bo'lgan har bir narsada g'ayratli va halol bo'lishi kerak. Kasbiy qadriyatlarga misol sifatida javobgarlik, talabaga nisbatan odillik yoki kasbga sodiqlik xislatlari kiradi. Ya'ni bo'lg'usi yosh pedagog mutaxassislar o'z-o'zini tarbiyalash usulidan foydalanishlari pedagogik zarurati bor. Demak, talabalarda ta'lim jarayonida kasbiy qadriyatlarni o'rganishdako'nikmani shakllantirish ular hayotida o'z samarasini beradi.

Kasbiy qadriyatlarni o'rnatish uchun ko'plab g'oyalar, axloqiy qoidalarni yaratdilar. Ular o'zlarining maktabda kunlik mashqlari uchun yakuniy va xulq-atvor ko'rsatmalarini va maqsadlarini belgilaydilar.

Ta'lim-tarbiya va kasbiy qadriyatlarni bir-biri bilan o'zaro bog'liqlik jihatlarini ko'rsatadigan bo'lsak, har qanday kasbiy qadriyatni ro'yobga chiqarish uchun eng avvalo uning ta'limiy-tarbiyaviy xususiyatlarini inobatga olish kerakligini ta'kidlamoqchimiz.

Talabalarning kasbiy dunyoqarashini shakllantirishda pedagogika kasbining ta'limiy-tarbiyaviy tomonlarini, kasbiy etikasi qoidalarini, shaxsiy, ijtimoiy va milliy qadriyatlarni chuqur tahlil qilish va ularni talabalar ongiga asosiy adabiyotlar va boshqa qo'shimcha manbalar orqali singdirish ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatiga ega.

Mustaqillik yillarida chop etilgan O. Musurmanovning "O'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish", B. Qosimovning, U. Dolimovlarning "Marifat adrg'alari", J. Tulenovning "Qadriyatlar falsafasi", A. Aliyevning "Ma'naviy qadriyat va badiiyat" kabi asarlarida ma'naviy axloqiy va kasbiy qadriyatlar tarixi, bugungi kundagi ahamiyati, talabalarda bu qadriyatlar orqali vatanga, oilaga, kasbiga bo'lgan muhabbat tuyg'usini rivojlantirish masalasi pedagogic-psixologik jihatdan yoritib berilgan.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur qadriyatlar doimiy rivojlantirib borilmasa muammo yechimini topa olmaydi. Bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, talabaning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi.

Bugungi kunda O'zbekiston o'z rivojlanish va taraqqiyot yo'lini belgilayotgan, o'zbek xalqi uz milliy o'zligini angelayotgan davrda ma'naviy-axloqiy tarbiya, kasbiy dunyoqarash, qadriyatlar masalasi eng dolzarb masala bo'lib kun tartibiga chiqdi va xalqimiz ongida shakllangan mutelik psixologiyasidan qutulishda asosiy rol o'ynadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" qonunida ta'lim, tarbiya tushunchalariga alohida ta'rif berilishi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev asosiy etiborini ta'lim sohasiga qaratganliklari bugungi kun yoshlarining ta'lim tarbiyasi masalasi qanchalik dolzarb pedagogik muammo ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistondagi zamonaviy oliy ta'lim muassasalari haqli ravishda o'tmishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy-huquqiy merosni o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga safarbar etilgan. Bu esa, o'z navbatida, mavjud an'analarni fan-texnika yutuqlari bilan uyg'unlashtirish, umunjahon ahamiyatiga ega bo'lgan kashfiyotlarni amalga oshirish imkonini bermoqda. Demak, talabalar kasbiy dunyoqarashini shakllantirishda kasbiy tarbiyaviy qadriyatlarga ma'naviy yondashuv tahlili zaruratiborligini ta'kidlamoqchimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xakimova M. Kasbiy pedagogika. O'quv qo'llanma. -T.: 2007.
2. Xasanboyev J., Sariboyev H., Niyozov G., Hasanboyeva O., Usmonboyeva M. Pedagogika. O'quv qo'llanma. -T.: 2006.
3. R. Mavlonova, N. Vohidova, N. Rahmonqulova. ---Pedagogika nazariyasi va tarixi. ---Toshkent.: 2010.

4.O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi.yangi tahrir.23.09.2020.637-sonli qonuni.

5.O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”18.07.2017.515-sonli Vazirlar Mahakamasining qarori.

6. www.ziyouz.com

7.www.pedagogik.uz.